

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduxalimov</b>	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
<b>F.K.Yusupjanova</b>	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish .....	217
<b>F.M.Mamadjanov</b>	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
<b>M.Komilova</b>	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
<b>A.A.Abduxalimov</b>	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
<b>I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova</b>	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari .....	242
<b>S.M.Isroilova</b>	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
<b>Sh.V.Djalolov</b>	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
<b>A.A.Qambarov</b>	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
<b>D.T.Samatov</b>	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
<b>A.U.Azimov</b>	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni .....	269
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
<b>D.A.Mamajonova</b>	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
<b>M.M.Mamadaliyeva</b>	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili .....	282
<b>U.O'.Musoyev</b>	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
<b>D.Y.Tashnazarov</b>	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi .....	291
<b>M.M.Alimova</b>	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati) .....	299
<b>R.Sh.Bozorova</b>	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
<b>E.X.Zoyirov</b>	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi .....	307
<b>A.S.Inomov</b>	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
<b>I.S.Aslonov</b>	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi .....	316
<b>B.M.Jo'raquziev</b>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari .....	320
<b>O.Radjabov</b>	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi .....	324
<b>Y.Shukurillaev</b>	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili .....	330
<b>M.M.Mamatkodiurov</b>	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
<b>M.Sh.Qoraboeva</b>	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili .....	338

**SHO‘RO ROSSIIYASI TOMONIDAN BUXORO AMIRLIGINING BOSIB OLINISHI  
JARAYONIDA TO‘PLAGAN RAZVEDKA MA‘LUMOTLARI TAHLILI**

**АНАЛИЗ РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИИ, СОБРАННОЙ СОВЕТСКОЙ  
РОССИЕЙ ВО ВРЕМЯ ЗАВОЕВАНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА**

**ANALYSIS OF INTELLIGENCE DATA COLLECTED BY SOVIET RUSSIA DURING THE  
SEPARATION OF BUKHARA EMIRATE**

**Shukurillaev Yunus<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Yunus Shukurillaev**

— Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

**Annotatsiya**

*Maqolada Sovet Rossiyasi tomonidan 1918-yilda Turkiston fronti shtab-kvartirasi razvedka boshqarmasi boshlig'i Ryuganov boshchiligida harbiy razvedka agentligi tashkil etilganligi, agentlik tomonidan Buxoro amirligining siyosiy-harbiy ahvolidan chuqur o'rganilganligi hamda mazkur razvedka ma'lumotlari 1920 yil mayda maxfiy hujjat tarzida "Buxoro operatsiyasi" tashkilotchilariga taqdim etilganligi bayon etiladi.*

**Аннотация**

*В статье военная разведка была создана Советской Россией в 1918 году под руководством Рыганова, начальника разведотдела штаба Туркестанского фронта, ведомство произвело глубокое исследование политического и военного положения Бухарского эмирата, и эта разведывательная информация была отправлена организаторам «Бухарской операции» в мае 1920 года, в виде секретного документа.*

**Abstract**

*In the article, military intelligence was created by Soviet Russia in 1918 under the leadership of Ryuganov, the head of the intelligence department of the Turkestan Front headquarters, the department made an in-depth study of the political and military situation of the Bukhara Emirate, and this intelligence information was sent to the organizers of the "Bukhara operation" in May 1920, in the form of a secret document.*

**Kalit so'zlar:** *harbiy razvedka agentligi, "Buxoro operatsiyasi", Qo'rxona", muntazam qo'shin, qo'shin tarkibi, qurol- yarog'lar, harbiy kiyim-boshlari, harbiylarning ovqatlanishi va ta'minoti, kazarmalar va qo'shindagi sanitariya-gigiyena holati, harbiy transport, harbiylarning bilim darajasi, qo'shin tarkibidagi zobit va askarlar, harbiy safarbarlik, qo'shin ichidagi kayfiyat.*

**Ключевые слова:** *военная разведка, операция «Бухара», Корхана, регулярная армия, состав армии, вооружение, обмундирование, военное продовольствие и снабжение, казарменное и армейское санитарно-гигиеническое положение, военный транспорт, уровень военного образования, офицеры и солдаты, мобилизация, моральный дух в армии.*

**Key words:** *military intelligence, Operation Bukhara, Korkhan, regular army, army composition, weapons, uniforms, military food and supplies, barracks and army sanitary and hygienic conditions, military transport, level of military education, officers and soldiers, mobilization, morale in the army.*

**KIRISH**

1917-yil Rossiyadagi fevral burjua inqilobidan so'ng Buxoro amirligi rasman to'laqonli mustaqil siyosat yuritishga kirishdi, ammo Rossiyadagi oktyabr to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar imperiya hududlarini qo'ldan boy berishni aslo istamas, aksincha uni kengaytirishni kun tartibiga qo'ygan edi.

Ana shunday yovuz maqsadni amalga oshirish uchun 1918-yilda Turkiston fronti shtab-kvartirasi huzurida razvedka boshqarmasi boshlig'i Ryuganov boshchiligida harbiy razvedka agentligi tashkil etilib, unga Buxoro amirligining siyosiy-harbiy ahvolidan chuqur o'rganish vazifasi yuklatiladi. Agentlik tomonidan 1920-yil mayda o'rganilgan ma'lumotlar maxfiy hujjat tarzida "Buxoro operatsiyasi" tashkilotchilariga taqdim etilgan[1].

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Maxfiy hujjatlar to'plami X bob va ilovadan iborat bo'lib, uning I-II boblarida Buxoro amirligi qo'shinining qisqacha tarixi hamda 1914-yilgi Buxoro qo'shini holati xususidagi ma'lumotlar keltiriladi. Hujjatning asosiy qismi sanalgan III bob "Hozirgi davrda Buxoro qo'shini" deb nomlanib,

Buxoro amirligining muntazam qo'shini, urush davrida to'planadigan lashkarlar, qo'shin tarkibi, qurol yarog'lari, harbiy kiyim-boshlari, harbiylarning ovqatlanishi va ta'minoti, kazarmalar va qo'shindagi sanitariya-gigiyena holati, harbiy transport, harbiylarning bilim darajasi, qo'shin tarkibidagi zobit va askarlar, harbiy safarbarlik, qo'shin ichidagi kayfiyat masalalari haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Hujjatning keyingi boblarida qo'shin ichidagi bo'linishlar, Buxoro qo'shinining harakatlanishi mumkin bo'lgan obyektlar, Buxoro amirining Afg'oniston, Angliya, Eron bilan munosabatlari, ulardan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan yordamlar, amirlikning Farg'onadagi bolsheviklarga qarshi qurolli harakatlariga munosabati, Buxoro amirligi va Sovet hokimiyati o'rtasidagi munosabatlar, xulosa hamda ilovalar keltiriladi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxoro amirligi qo'shinining qisqacha tarixida XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida muntazam qo'shinga asos solinishi, Usmon nomi bilan tanilgan rus qochoq askari boshchiligida Buxoro qo'shinida amalga oshirilgan islohotlar, amirlik qo'shinida Rus harbiy Nizomining joriy etilishi, Rossiya imperiyasi tomonidan Yevropacha tipidagi harbiy-nizomiy guruhlarining tashkil etilishi, ularning qurollantirilishi masalalari atroflicha yoritiladi[1,3].

Hujjatga ko'ra, 1914-yilda Buxoro qo'shini – sarbozlar saflarida 150 nafar zobit, 10000 nafar askar, 2 qo'riqchi otliq Amir karvoni (12 nafar zobit, 400 askar, gvardiya otliq artilleriya batareyasi) to'pchilar harbiy-nizomiy guruhida 100 nafar askar, 10 nafar zobit, 500 nafar artilleriya askari jami 200 nafar zobit va 11000 nafar askardan iborat bo'lgan. Sarbozlarning aksariyati pilta miltiqlar, ba'zilar 1850-yil namunasidagi Berdan miltiqlari bilan qurollangan. Buxoro artilleriyasi amirlikning Karki, Qarshi, Hisor, Qo'rg'ontepa, G'arm shaharlari qal'alarida joylashtirilgan. Ma'lumotda Buxoro qo'shini Rossiya uchun mutlaqo foydasiz va amirlik uchun zararli hamda kelajakda uni tarqatib yuborish kerak, degan xulosaga kelingan[1,3].

1917-yil Rossiyadagi oktyabr to'ntarishi va 1918-yilgi Kolesov voqealaridan so'ng ichki va tashqi dushmanlardan o'zini himoya qilish maqsadida Buxoro amiri yangi harbiy bo'linmalarni shakllantirish va harbiy anjomlarni qizg'in sotib olishni boshladi. Yevropa tipidagi harbiy-nizomiy guruhlar hamda zamonaviy qurol-yarog'lar sotib olishga e'tibor qaratildi. Mazkur ma'lumotlar mahalliy tarixchilar manbalarida ham o'z isbotini topadi[4].

1920-yil 15-may holatiga ko'ra, Buxoro amirligi muntazam qo'shini 19.585 nafarni tashkil etgan. Ular soni urush davrida chaqiruvga jalb etilishi mumkin bo'lgan 10-15 ming ro'yxatga olingan lashkarlar bilan birga 29585 nafardan to 34585 nafargacha yetishi mumkin, biroq ularni faqatgina sovuq qurollar-xanjar hamda qilichlar bilan qurollantirish mumkin bo'ladi.

Muntazam qo'shin o'zbek, tojik, qirg'iz, turkman, arablardan iborat bo'lib 15 yoshdan hatto 70 yoshli qariyalarni ham uchratish mumkin edi.

Zamonaviy qurol-yarog'lar ishlab chiqarish zavodlariga ega bo'lmagan Buxoro amirligi 1917 yildan chetdan qurol-yarog' olib kirganlarni turli xil qimmatbaho sovg'alar, otlar, xalatlar, unvon va mansablar bilan mukofotlashni kuchaytirgan. Bu esa Buxoro amirligiga qurol-yarog'ning kirib kelish suratini yanada tezlashtirdi. Bu orada yevropacha tipda tashkil etilgan harbiy nizomiy guruhlar 3 qatorli rus va 11 zaryadli ingliz miltiqlari bilan qurollantirildi. Agentlik ma'lumotlariga ko'ra Buxoro qo'shinida 45 dan 50 gacha pulemyotlar bo'lib ulardan 12 tasigina ishchi holatida edi. Bundan tashqari 8000 dona qo'l granatalari, 500 dona to'p (ulardan 12 tasi zamonaviy) mavjud edi. Eski Buxoroda kuniga sifatli charmdan 500 juft oyoq kiyimlari tayyorlash korxonasi faoliyat yuritgan. Ta'kidlash joizki, Buxoro shahrida kuniga 12 ming dona patron ishlab chiqarish imkoniyatiga ega korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilib, unda I Jahon urushida asir olingan germaniyalik hamda avstriyalik harbiylar xizmatidan foydalanilgan[5]. Ushbu ma'lumot O'zbekiston milliy arxivi I-126 fond Buxoro amiri qo'shbegisi devonxonasi arxivi manbalarida ham o'z isbotini topadi[6].

Yaxshi, sifatli porox Afg'oniston orqali olib kirilgan. Buxoroda porox ibtidoiy usulda tayyorlanib, qora tutunli va sifatsiz edi[7].

Agentlik ma'lumotlarida Buxoro qo'shinining ovqatlanishi, ularga beriladigan oylik maoshlar aniq raqamlarda keltiriladi.

1919-yil avgustda Buxoro qo'shinida tif, dizenteriya va bezgak epidemiyalari avj olgan, kasallanganlardan har kuni yuzlab askarlar halok bo'lgan. Qo'shinda, kazarmalardagi og'ir sanitariya-gigiyena sharoiti pirovardida hatto teri-tanosil kasalliklari ham ko'payganligi keltirib o'tiladi[1].

Urush xavfi yaqinlashayotgan bir paytda 1918-yilda aholida ko'plab otlar sotib olingan, ular soni 1919-yil noyabr oyida 2000 dan ortiq edi. Harbiy dala mashqlari 1920-yildan biroz jonlangan bo'lsada, hamon eskicha tartiblarda amalga oshirilgan. Hech qanday o'quv dasturiga asoslanmagan mashqlar jarayoni qo'shbegi arxivi ma'lumotlarida ham o'z aksini topgan. Buxoro shahri Samarqand darvozasi tashqarisida o'tkaziladigan bunday mashqlar "Paxta-parron" deb nomlanib, zararsizlantirilgan o'qlardan, ichiga sochma porox o'rniga arpa qipig'i solib foydalanilgan[8].

Yuzlab bo'lingan askarlar otda ommaviy hujumlarga o'rgatilgan. Amir va Afg'oniston harbiy missiyasi a'zolari ishtirokida amalga oshirilgan manevrlar (oxirgilari 1920-yil aprel oyining boshlarida amalga oshirilgan) haqida ma'lumotlar mavjud. Qo'shinni tayyorlash, instruktorlarning kamligi, o'qitilgan xodimlarning yetishmasligi va hech qanday tayyorgarlik, malakasiz unvon olgan zobitlarning mavjudligi, qolaversa, amir tomonidan Afg'onlarga ishonib topshirilgan qo'shinni jangovarlik salohiyati qoniqarsiz ahvolda bo'lgan. Buxoro qo'shini zobitlari hamda askarlari hech qanday ta'lim malakasiga ega bo'lmagan, ularning aksariyati butunlay savodsiz edi[1,8].

Harbiy xizmatning umrbodligi, 15 yoshdan hatto 70 yoshgacha ekani, qo'shin tarkibiga qabul qilish tizimi yo'qligi, zarur bo'lganda qo'shin tarkibiga sotib olish, o'zining o'rniga birovni yollash huquqining mavjudligi, boylar va amaldorlarning farzandlarini harbiy xizmatdan butunlay ozod qilinganligi, harbiy safarbarlik rejasi va tizimi mavjud emasligi hisobotda alohida olqishlar bilan bayon etilgan[1,9].

Razvedka ma'lumotida oddiy askarlar maoshining kamligi, harbiy xizmatdan qochish, aholi ustidan talonchilik va o'g'rilikning avj olganligi xususidagi ma'lumotlar ko'plab keltiriladi.

Biroq, bolsheviklar ushbu salbiy holatlar qo'shinning amirga qarshi qo'zg'alishi, sovet hokimiyati tomoniga o'tishi ehtimoli ancha past ekanligini, aksincha amirlikka qarshi hujum qilinganda kofirlarga qarshi muqaddas urushda ishtirok etishi ehtimolini yuqori baholashgan.

Boshlanajak harbiy harakatlar oldidan bolsheviklar temir yo'l tarmoqlariga jiddiy e'tibor qaratilishi zarurligini ta'kidlashadi. Bunday qiyinchiliklarga sho'rolar Kolesov voqealari jarayonida duch kelishganini unutishmagan edi.

Agentlik ma'lumotlarida Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi maxfiy kelishuvlar, Afg'onistonning harbiy yordami, o'zaro elchilik munosabatlari aks ettiriladi. 1919 yilgi Anglo-Afg'on urushida Sovet hokimiyatining Afg'onistonga bergan "beg'araz yordam"idan so'ng ham Afg'onistonning Buxoro bilan yashirincha qurol-yarog' savdosi munosabatlari davom etayotganligi keltiriladi. Bundan tashqari, amirlikning Angliya va Erondan olishi mumkin bo'lgan yordamlar, o'zaro aloqalar, Farg'onada davom etayotgan Sovet hokimiyatiga qarshi kurashayotgan qo'rboshilar bilan amirning aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tiladi[1,11-12].

#### XULOSA

Agentlik ma'lumotlarining xulosa qismida Buxoro qo'shinining harbiy harakatlarga tayyor emasligi, bolsheviklarga qarshi uzoq muddat qarshilik qila olmasligi, aholining sovet hokimiyatiga qarshi ommaviy qarshilik qilish ehtimoli pastligi, ayni vaqtda tashqi kuchlarning Buxoroga yetarli darajada harbiy yordam bera olmasligi ta'kidlab o'tiladi. Mazkur xulosalar o'zini qanday oqlaganligi hamda amirlikning ayanchli yakuni barchamizga ayon.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рюганов. Вооруженные силы Бухарского ханства. (секретно) Ташкент. Походная типография Путурка 1920. С - 16.
2. Ўзбекистон Миллий архиви И-126 фонд - Бухоро амири кўшбегиси девонхонаси
3. Муҳаммад Саййид Балжувоний. Тарих-и нофеи. Душанбе, 1994; Муҳаммад Саййид Балжувоний. Тарих-и нофеи. Тожиқ тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. Т.: Академия, 2001.
4. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. Тўлдирилган иккинчи нашри./ Масъул муҳаррир Ш. Воҳидов. Тошкент: Академия, 2002. –183 б.